

# Qanday qilib, bank mijozи bo'lish mumkin?

*Bank mijozи bo'lish uchun, Siz shaxsingizni tasdiqlashingiz va bank hisob raqami nima uchun kerakligini tushuntirib berishingiz kerak bo'ladi. Bankning biror bir bo'limiga tashrif buyurganingizda bank sizdan qanday ma'lumotlarni olishni hoxlayotganini usbu qo'llanma ko'rsatib beradi.*



## Identifikasiya

Har qanday vaqt siz o'z shaxsingizni tasdiqlovchi hujjatni taqdim etishga tayyor bo'lishingiz kerak.

1. Shaxsni tasdiqlovchi hujjat sifatida Shvetsiyada berilgan amaldagi pasport, shaxsni tasdiqlovchi plastik guvohnoma, bank kartasi yoki haydovchilik guvohnomasi qabul qilinadi.
2. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan shved hujjatlari yo'qligida fotosuratlari va fuqarolik ko'rsatilgan amaldagi horijiy passport yoki boshqa hujjatlar qabul qilinadi. Hujjat vakolatlangan organ tomonidan berilgan bo'lishi kerak. Diqqat! Bank qo'shimcha hujjatlarni so'rabsiz olishga haqli.
3. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan hujjatlar mavjud bo'lmaganida siz o'z shaxsingizni va fuqaroligingizni mustaqil va ishonchli manbalar tomonidan taqdim etilgan boshqa hujjatlar yordamida tasdiqlashga tayyor bo'lishingiz kerak.

## Horijiy talabalar

Agar siz horijiy talaba bo'lsangiz, siz yuqorida ko'rsatilgandek shaxsingizni tasdiqlovchi hujjatni taqdim etishga tayyor bo'lishingiz kerak. Bundan tashqari, sizda quyidagilar bo'lishi kerak:

- Yashash uchun guvohnoma yoki viza (Yevropa ittifoqi fuqarolariga tarqalmaydi).
- O'qish muddati ko'rsatilgan universitetga qabul qilinganligi haqida bildirish xati.

## Bank hisob raqamiga ehtiyoj

Bank hisob raqami Sizga nima uchun kerakligi va undan qaysi maqsadda foydalaningizni doimo tushuntirib berishni bilishingiz kerak.

Ushbu vaziyatda gap ish haqini yoki boshqa mukofotlarni tayinlash, ijara haqini to'lash yoki omonatlar haqida bo'lishi mumkin.

Bank Siz haqingizda mijoz sifatida to'liq ma'lumotlarga ega bo'lish uchun qo'shimcha savollar berishi mumkin.

## Bank hisob raqamiga huquq...

Omonatlarning davlat kafolatiga kiruvchi bank hisob raqamiga va to'lovlar bo'yicha asosiy xizmatlarga murojaat etish imkoniyati, umuman olganda, barcha shaxslar uchun jchiq. Bunday imkoniyat fuqaroligingizdan qat'iy nazar va shved shaxsiy kodining borligiga bog'liq bo'lmagan holda xammaga tarqaladi.

## ...ammo ayrim vaziyatlarda, bank hisob raqamini oshishda sizga rad javobini berishi mumkin.

Bank quyidagi vaziyatlarda hisob raqamini ochmaydi:

- Bank Sizning shaxsingizni etarlicha ishonchlilik bilan aniqlay olmasa;
- Hisob raqami ochish uchun Siz taqdim etgan ma'lumotlaringiz bank tomonidan to'g'ri emas deb hisoblansa;
- Hisob raqamiochilayotganda bank qonun yoki boshqa huquqiy hujjatlarning biror bir qoidalarini buzayotgan bo'lsa.

Agar Siz avval bankka nisbatan noinsoflik qilgan bo'lsangiz, bank hisob raqamini ochishda rad javobini berishi mumkin.

## Quyidagilar haqida o'ylab ko'ring...

- Siz bank savollarini tushunishingiz va ularga javob berishingiz kerak.
- Shu bilan birga, siz bank tomonidan olinuvchi ma'lumotlarni xam tushunnishingiz kerak.
- Agar sizga tarjima uchun kimdir kerak bo'lsa, bankdagi uchrashuvga u bilan birga boring.
- Bank Sizning pul manbaingiz haqida so'raydi.
- Sizning hisobingiz yoki bankning boshqa xizmatlari bank bilan kelishilgan maqsadlar uchun qo'llanishi kerak.
- Bank boshqa savollar berishi yoki boshqa talablar qo'yishi mumkin.

## Qo'shimcha ma'lumot

Batafsil ma'lumot uchun tegishli bankka murojaat qiling.

Shungdek, ma'lumotlar bu yerlarda keltirilgan:

### Shvetsianing bir palatali Parlamenti (Sveriges riksdag):

Noqonuniy pullarni ishlatalish yoki terrorizmni moliyalshirishni ogohlantirish to'g'risida qonun (2017:630).

Batafsil ma'lumot [www.riksdagen.se](http://www.riksdagen.se) saytidagi.

### Moliyaviy inspeksiya (Finansinspektionen):

Noqonuniy pullarni ishlatalish yoki terrorizmni moliyalshirishni ogohlantirish choralar bo'yicha moliyaviy inspeksianing ko'rsatmasi.

Batafsil ma'lumot [www.fi.se](http://www.fi.se) saytidagi.

### Shvetsiya banklari birlashmasi (Svenska Bankföreningen):

Banklarning noqonuniy pullarni ishlatalish yoki terrorizmni moliyalshirishni ogohlantirish choralar haqida ma'lumot.

Batafsil ma'lumot [www.swedishbankers.se](http://www.swedishbankers.se) saytidagi.

### Qarzdorlik bo'yicha Milliy agentlik (Riksgälden):

Tovon kafolatlari haqida ma'lumot. Batafsil ma'lumot [www.riksgalden.se](http://www.riksgalden.se) saytidagi.



Svenska Bankföreningen

Swedish Bankers' Association

[www.swedishbankers.se](http://www.swedishbankers.se)